

SHARTNOMA № _____
«MUDDATLI» MILLIY VALYUTADAGI MUDDATLI BANK OMONATI TO‘G‘RISIDA

y. _____ «__» _____ 20__ yil

«Tenge Bank» Aksiyadorlik tijorat banki, keyinchalik «Bank» deb ataluvchi, _____ shaxsining vakiligida, «_» _____ 20__ yilda berilgan № _____ Ishonchnomaga asosan ish yurituvchi, bir tomondan va _____, keyinchalik «Omonatchi» deb ataluvchi, ikkinchi tomondan, keyinchalik «Tomonlar» deb ataluvchi quyidagilar to‘g‘risida ushbu Shartnomani tuzdilar:

1. Shartnoma mavzusi

- 1.1. Omonatchi milliy valyutada _____ (summa yozuv bilan) miqdoridagi pul mablag‘larini (keyinchalik «Omonat») Bankka topshiradi, Bank esa ushbu mablag‘ni №20606 _____ raqamli muddatli omonat hisobida joylashtirish uchun qabul qilish majburiyatini oladi va ushbu Shartnomada ko‘rsatilgan shartlar va tartibda qaytarishga majbur bo‘ladi. Ushbu Shartnoma Omonat summasi Bankka tushgan kundan boshlab tuzilgan deb hisoblanadi.
- 1.2. Ushbu Shartnomaning tuzilishi va Omonatlarga pul mablag‘larini kiritilishi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan yozma hujjat (kassa kirim orderi/memorial orderi) orqali tasdiqlanadi.
- 1.3. Shartnoma _____ dan _____ gacha 12 oy maddatga tuziladi.

2. Omonat shartlari

- 2.1. Omonat summasini hisobga olish uchun Omonatchiga №20606 _____ «Jismoniy shaxslarning muddatli depoziti» hisobi ochiladi. Hisob Omonatchi Bankka shaxsan kelganida, shaxsni tasdiqlovchi hujjatni taqdim etganida, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ochiladi.
- 2.2. **Omonat shartlari:**
- Omonat shakli – Muddatli
 - foizli stavka - **19%** yillik;
 - Omonat mudatti – **12 oy**;
 - Omonat minimal miqdori – **10 000 000,00** so‘m;
 - Omonat maksimal miqdori – cheklanmagan;
 - qo‘shimcha to‘lov – nazarda tutilmagan;
 - qisman chiqarish (asosiy summani) – nazarda tutilmagan;
 - kapitalizatsiya – nazarda tutilmagan;
 - prolongatsiya - nazarda tutilmagan;
 - foizlarni to‘lash – har oy, omonat valyutasida, avtomatik tarzda №20206 «Omonatchining talabiga ko‘ra depozit hisobi»ga o‘tkazish yo‘li bilan.
- 2.3. Hozirgi Shartnoma asosida Omonatchi nomiga ochilgan bank hisoblari Shartnoma amal qilish muddati tugaganda (Omonat qoldiqlari bo‘lmasa) yopiladi.
- 2.4. Omonatga pul mablag‘lari naqd hamda naqdsiz shaklda, ya‘ni plastik kartalardan yoki boshqa omonat hisoblaridan undirish orqali, Omonatchi yoki uning ishonchnomaga asoslangan qonuniy vakili tomonidan kiritilishi mumkin.
- 2.5. Omonatga naqd pul mablag‘larini kiritish kirish kassa orderi asosida amalga oshiriladi, naqdsiz pul mablag‘larini kiritish esa Omonatchi yoki uning ishonchnomaga asoslangan qonuniy vakilining Arizasi asosida bajariladi.
- 2.6. Omonat bo‘yicha foizlar har kuni hisoblanadi, bu «Kommersiya banklarida foizlarni hisoblash tartibi to‘g‘risida»gi 2023 yil 29 sentyabrdagi №3460-sonli Nizomga muvofiq amalga oshiriladi. Shu bilan birga, yillik hisoblashda yilda 365 kun hisoblanadi.
- 2.7. Omonat summaciga foizlar Bankka tushgan kundan keyingi kundan boshlab hisoblanadi va Omonatchiga qaytarilgan kun yoki Omonatchi hisobidan boshqa asoslar bilan chiqarilgan kun oldidan

tugaydi. Bank Omonatchining hisob raqamiga ta'qiq solingan yoki hisobdagi operatsiyalar vaqtincha to'xtatilgan holatlarda, hisobdagi pul mablag'larini foydalanish imkoniyati bo'lmagan davr uchun foizlar hisoblanmaydi.

2.8. O'zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligi talablariga muvofiq (30-, 366- va 382-moddalar), O'zbekiston Respublikasi soliq rezidenti maqomini olmagan norezident omonatchilardan bank tomonidan omonat bo'yicha to'lanadigan foizlar (daromadlar) summasidan manbaida soliq ushlab qolinadi va ushlab qolingani soliq keyinchalik davlat byudjetiga o'tkaziladi.

2.9. Omonat yopilganda, asosiy summa va qo'shimcha to'lovlar avtomatik ravishda Omonatchining 20606 raqamli «Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari» hisob raqamidan Omonatchi talabiga ko'ra ochilgan 20206 _____ raqamli omonat hisob raqamiga o'tkaziladi. 20206 raqamli «talab bo'yicha depozit hisob raqami»dagi qoldiq mablag'larga foizlar Omonat bo'yicha talabga muvofiq shartlar asosida hisoblanadi.

2.10. Agar muddatli omonatning (oflayn) qaytarish sanasi dam olish yoki bayram kuniga to'g'ri kelsa, omonatni qaytarish dam olish/bayram kunlaridan keyingi birinchi ish kuniga ko'chiriladi. Bu vaqtda omonatni qaytarish kunida Mijozga dam olish/bayram kunlari uchun qo'shimcha hisoblangan foizlar bilan birga to'lanishi kerak bo'lgan foizlar to'lanadi.

2.11. Agar Omonatchi o'z Omonati muddati tugaganidan avval to'liq summasini qaytarib olishni xohlasa, u Bankka bu haqda yozma ariza orqali, Omonatni chiqarish rejalashtirilgan sanadan kamida bir oy oldin xabar berishi shart.

2.12. To'liq muddatidan avval qaytarishda, Omonatchiga asosiy Omonat summasi foizlarsiz to'lanadi. Agar foizlar oldinroq Omonatchiga to'langan bo'lsa, oldin to'langan foizlar summasi asosiy Omonat summasidan ushlab qolinadi.

2.13. Omonatni berish, u bo'yicha foizlarni to'lash hamda Omonatchi yoki uning vakolatnomaga asoslangan qonuniy vakili tomonidan berilgan barcha topshiriqlarni bajarish, shaxsni tasdiqlovchi hujjat taqdim etilgan taqdirda Bank tomonidan amalga oshiriladi.

3. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

3.1 Bank majbur:

- Omonatchini muddatli Omonat shartlari bilan tanishtirish va batafsil tushuntirish;
- ushbu Shartnomani imzolaganidan so'ng Omonatchiga hisob ochish;
- Omonatchidan pul mablag'larini qabul qilish va ushbu Shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan Omonat summasini 20606 «Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari» depozit hisobiga kiritish;
- Omonatchiga belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan tasdiqlovchi hujjatni (kirim kassa orderi/memorial order) topshirish;
- ushbu Shartnomaning 2.2., 2.6., 2.7., 2.9-bandlariga muvofiq foizlarni hisoblab berish va to'lash;
- Omonat muddati tugaganidan so'ng, Shartnomaning 2.2., 2.8., 2.9. va 2.10-bandlariga muvofiq ravishda Omonat summasini qaytarish;
- hisoblardagi mablag'larning saqlanishi va daxlsizligini ta'minlash. Hisoblardagi mablag'larga arest qo'yish yoki hisob operatsiyalarini to'xtatib qo'yish faqatgina O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda amalga oshirilishi mumkin;
- O'zining soliq qonunchiligiga muvofiq ravishda, rezident bo'lmagan shaxsga ochilgan omonat bo'yicha to'lanadigan foizlar (daromadlar)dan manbada soliq summasini to'g'ri hisoblash, ushlab va O'zbekiston Respublikasi byudjetiga o'tkazilishini ta'minlash;
- Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni himoya qilish, Omonatchi va Omonati to'g'risidagi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga faqatgina amaldagi qonunchilikda belgilangan hollar va tartibda taqdim etish.

3.2 **Bank huquqli:**

- Omonatchidan shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishini talab qilish, ushbu hujjatdan nusxa/skan olish;
- davlat organlarining ijro hujjatlari kelib tushgan taqdirda, Omonatchi e'tiroz bildirishidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda tegishli choralarni (hisobdagi mablag'larga arest qo'yish, mablag'larni akseptsiz tarzda yechib olish, hisob bo'yicha operatsiyalarni to'xtatish va boshqalar) ko'rish;
- Omonatchi Omonat muddati tugamasdan uni muddatidan oldin qaytarishni talab etgan taqdirda, unga faqat asosiy Omonat summasi foizlar hisoblanmasdan qaytariladi. Agar foizlar avvalroq Omonatchiga to'langan bo'lsa, ushbu to'langan foizlar summasi asosiy Omonat summasidan ushlab qolinadi;
- Bank xizmatlaridan foydalanish doirasida amalga oshirilgan bank operatsiyalari uchun Omonat hisobidagi pul mablag'lari bo'yicha belgilangan Tariflarga muvofiq komissiya to'lovini undirish;
- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida, Bank Omonatchidan uni identifikatsiya qilish va hisob bo'yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalarning qonuniyligini tasdiqlovchi ma'lumot va hujjatlarni talab qilish huquqiga ega;
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq hollarda hisob bo'yicha operatsiyalarni to'xtatish yoki ularni amalga oshirishdan bosh tortish;
- xalqaro iqtisodiy sanksiyalar talablarining buzilishi bo'yicha shubhalar yuzaga kelgan taqdirda, Bank majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarishdan yakka tartibda voz kechish, shuningdek, hisob bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish huquqiga ega;
- Bank yangiliklari, axborot, reklama materiallari va tijorat takliflarini, shuningdek, Omonat hisobidan amalga oshirilgan operatsiyalar haqidagi ma'lumotlarni Omonatchi ko'rsatgan pochta manzili/telefon raqamlariga pochta, elektron aloqa vositalari, SMS-xabarlar orqali yoki boshqa usullarda yuborish. Ushbu korrespondensiya uchinchi shaxslarga ma'lum bo'lib qolishi bilan bog'liq barcha xavf-xatarlar Omonatchining zimmasida bo'ladi;
- Bank tomonidan Omonatga pul mablag'lari noto'g'ri o'tkazilgan taqdirda, Mijoz Bankka ushbu mablag'larni qaytarish uchun Omonatdan noto'g'ri o'tkazilgan pul mablag'lari va/yoki ortiqcha hisoblangan/to'langan foizlar summasi miqdorida mablag'larni Mijozning qo'shimcha topshirig'isiz undirish huquqini (oldindan berilgan aksept) taqdim etadi.

3.3 **Omonatchi majbur:**

- Muddatli bank Omonati shartlari bilan tanishish, Omonat bo'yicha to'ldirilgan hujjatlarni o'z imzosi bilan tasdiqlash;
- ushbu Shartnoma shartlariga rioya etish;
- hisoblar bo'yicha operatsiyalarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa vakolatli organlarning normativ hujjatlariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshirish;
- Bank talabiga muvofiq ushbu shartnoma doirasida so'ralgan ma'lumot va hujjatlarni taqdim etish;
- hisoblarga noto'g'ri o'tkazilgan va/yoki hisoblardan noto'g'ri yechilgan mablag'lar aniqlanganda, darhol Bankka xabar berish va hisoblarni tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq operatsiyalar uchun foydalanmaslik;
- Bankni yozma ravishda o'z manzili, telefon raqamlari, jumladan mobil telefoni raqami, familiyasi, ismi yoki otasining ismining o'zgarishi, shaxsini tasdiqlovchi hujjat almashtirilganligi haqida xabardor qilish;
- ushbu Shartnoma muddatidan oldin to'liq bekor qilinsa, Omonatchi Bank tomonidan avval to'langan foizlarning summasini qoplash majburiyatini oladi, ushbu foizlar Omonat qaytarilganda uning summasidan ushlab qolinadi;
- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish qonunchiligiga, shuningdek xalqaro iqtisodiy sanksiyalarga rioya etish.

3.4 Omonatchi huquqli:

Omonat hisob raqamiga pul mablag'lari qabul qilingan va kirim qilinganidan so'ng, belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan tasdiqlovchi hujjatni (kassa kirim orderi /memorial order) olish;

- Omonat bo'yicha operatsiyalar haqidagi ma'lumotlarni SMS-xabarlar, Bankning mobil ilovasi, shuningdek Bankning www.tengebank.uz rasmiy veb-saytida joylashgan shaxsiy kabinet orqali olish;
- Omonat hisob raqami bo'yicha masofaviy xizmatlardan Bankning mobil ilovasi orqali foydalanish;
- Omonatni shaxsan tasarruf etish yoki O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq notarial tasdiqlangan ishonchnomaga asosan uchinchi shaxslarga tasarruf etish huquqini berish;
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Omonatchi huquqlaridan foydalanish.

4. Tomonlar javobgarligi

4.1. Shartnoma bo'yicha tomonlar o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, Shartnoma shartlarini buzgan tomon qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

4.2. Omonatchi Omonat va unga doir operatsiyalar haqida mobil telefon orqali olgan ma'lumotlarni, shuningdek Bankning mobil ilovalari orqali olingan ma'lumotlarni maxfiy saqlash uchun javobgar hisoblanadi.

4.3. Bank, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini moliyalashtirishga qarshi qonunchilik, shuningdek xalqaro iqtisodiy sanksiyalar talablariga muvofiq, Omonatchi majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarishdan voz kechishi, hisobvaraqlar operatsiyalarini to'xtatishi hollarida javobgarlikdan ozod qilinadi;

4.4. Tomonlar Shartnomada belgilangan majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajara olmasliklari holatida javobgarlikdan ozod etiladi, agar bu bajara olmaslik holati tabiiy ofatlar, favqulodda va oldini olish mumkin bo'lmagan holatlar (fors-major), O'zbekiston Respublikasi Hukumatining moratoriy haqidagi qarori, yoki tegishli munosabatlarni tartibga soluvchi qonun yoki boshqa normativ hujjatning amal qilishi to'xtatilishi sababli yuzaga kelgan bo'lsa.

5. Boshqa shartlar

5.1. Ushbu Shartnomani imzolash orqali Omonatchi Bankka o'zining shaxsiy ma'lumotlarini ishlash va foydalanish uchun muddatsiz rozilik beradi. Bu ma'lumotlar Bank faoliyatini amalga oshirish, ushbu Shartnoma shartlarini bajarish, shuningdek qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin.

5.2. Ushbu Shartnoma ijrosi bilan bog'liq nizolar tomonlar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi. Agar muzokaralar orqali kelishuvga erishilmasa, nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq sud tartibida hal etiladi.

5.3. Omonatchi Bankning operatsion kuni muddati to'g'risida xabardor qilingan. Agar operatsiya MBXT orqali operatsion kun yakunlangandan keyin amalga oshirilsa, operatsiya natijalari keyingi ish kunida aks ettirilishi to'g'risida ogohlantirilgan.

5.4. Bank hisoblar bo'yicha topshiriqlarni faqat Omonatchi yoki qonuniy vakilining Bank belgillagan tartibdagi murojaatiga asosan qabul qiladi.

5.5. Bank tomonidan qabul qilingan Omonat mablag'larining qaytarilishi O'zbekiston Respublikasi banklaridagi omonatlarni kafolatlash agentligi tomonidan 2025 yil 18 fevraldagi №ZRU-1031-son «Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida»gi Qonunga asosan kafolatlanadi.

5.6. Kafolat holati yuz bergan sanadan boshlab, kafolatlangan Omonat obyektlariga egalik qiluvchi omonatchilarning barcha talab huquqlari tugatilayotgan bankka nisbatan Agentlikka o'tadi. Bu huquqlar Agentlik tomonidan kompensatsiya to'langan-o'tlanmaganidan qat'i nazar, kafolatlangan omonat miqdorida amalga oshiriladi. Agentlikning talablari belgilangan qonunchilikka muvofiq qondiriladi.

5.7. Ushbu Shartnoma bilan tartibga solinmagan holatlarda, tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Omonat pasporti talablariga amal qiladilar.

5.8. Tomonlar kelishuviga ko'ra, ushbu Shartnoma rus tilida ikki nusxada tuzildi – har bir tomon uchun bittadan nusxa. Har bir nusxa bir xil yuridik kuchga ega.

5.9. Ushbu Shartnomani imzolab, Omonatchi «Tenge Bank» ATBda qabul qilingan Omonat operatsiyalari tartibi va «Srochniy» nomli muddatli bank Omonati shartlari bilan to'liq rozi ekanligini tasdiqlaydi.

6.0. Ushbu Shartnoma Omonatchi tomonidan o'z familiyasi, ismi va otasining ismini shaxsan yozib imzolanishi lozim.

6. Tomonlarning yuridik manzillari:

«BANK»

«Tenge Bank» ATB

Manzil: _____

Tel: _____

MFO: _____

INN: _____

(imzo)

«OMONATCHI»

ΦISH

Tug'ilgan sanasi: _____

Fuqarolik: _____

Pasport ma'lumotlari:

Seriya va №: _____

berilgan sanasi va joyi: _____

Manzil: _____

Telefon: + (____) _____

Omonatchi imzo va ΦISH:

(Omonatchi tomonidan shaxsan to'ldiradi)